



ISLOM MOLIYASINING ZAMONAVIY IQTISODIYOTDAGI ROLI

Askarova Mahliyoxon Baxodirjon qizi

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi

Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi tinglovchisi

Tel: +998900048873

E-pochta: samiynaaskarova@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada islom moliyasining zamonaviy global iqtisodiy tizimdagi roli, uning asosiy tamoyillari va iqtisodiyotni diversifikatsiyalashdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Islom moliyasining ijtimoiy adolat, risklarni adolatli taqsimlash va moliyaviy inklyuzivlikni oshirishdagi funksiyalari yoritilgan. Shuningdek, islom moliyasi asosida ishlovchi instrumentlarning (murabaha, mudaraba, sukuk, takaful) zamonaviy iqtisodiy rivojlanishdagi o'rni ham tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: islom moliyasi, islom banki, sukuk, murabaha, mudaraba, takaful, iqtisodiy rivojlanish, moliyaviy inklyuzivlik.

Abstract: This article analyzes the role of Islamic finance in the modern global economic system, its fundamental principles, and its importance in economic diversification. The study highlights the functions of Islamic finance in promoting social justice, fair risk-sharing, and enhancing financial inclusion. Moreover, the role of Islamic finance instruments (such as murabaha, mudaraba, sukuk, and takaful) in contemporary economic development is discussed.



Keywords: Islamic finance, Islamic banking, sukuk, murabaha, mudaraba, takaful, economic development, financial inclusion.

Аннотация: В данной статье рассматривается роль исламских финансов в современной глобальной экономической системе, их основные принципы и значение для диверсификации экономики. Освещаются функции исламских финансов в обеспечении социальной справедливости, справедливого распределения рисков и повышения финансовой инклюзии. Также анализируется роль исламских финансовых инструментов (мурабаха, мудараба, сукук, такафул) в современном экономическом развитии.

Ключевые слова: исламские финансы, исламский банкинг, сукук, мурабаха, мудараба, такафул, экономическое развитие, финансовая инклюзия.

Kirish.

Mavzuning dolzarbligi.

XXI asrda global moliya tizimi jiddiy transformatsiyani boshdan kechirmoqda. Moliyaviy inqirozlar, iqtisodiy beqarorliklar va moliyaviy inklyuzivlik masalalari zamonaviy iqtisodiyot oldiga yangicha talablarni qo'ymoqda. Ushbu talablarni qondirish yo'lida an'anaviy moliyaviy tizimlarga muqobil yechim sifatida islom moliyasi tobora kengroq ahamiyat kasb etmoqda. Bu tizimning asosiy xususiyatlari ribo (foiz), g'arar (noaniqlik), mayser (qimor) kabi amaliyotlarni taqiqlash, aktivlarga asoslangan moliyalashtirishni joriy etish hamda foyda va zararni adolatli taqsimlash mexanizmlarini qo'llashdan iborat. Shu jihatlari bilan islom moliyasi an'anaviy bank tizimidan tubdan farq qiladi va ijtimoiy adolat tamoyillariga muvofiqligi bilan ajralib turadi. Bugungi kunga kelib



islom moliyasi nafaqat musulmon mamlakatlarida, balki Yevropa, Shimoliy Amerika va Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlarida ham jadal rivojlanmoqda. Global islom moliyasi aktivlari hajmi 2023-yilda 3,9 trillion AQSH dollarini tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilga borib bu ko'rsatkich 4,5 trillion dollarga yetishi kutilmoqda. Ushbu raqamlar islom moliyasi tizimining jahon moliyaviy tizimidagi ahamiyatining tobora ortib borayotganidan dalolat beradi.¹

O'zbekiston Respublikasida ham so'nggi yillarda islom moliyasini rivojlantirish borasida muhim qadamlar tashlandi. O'zbekiston hukumati tomonidan islom moliyasi xizmatlarini mamlakat moliyaviy tizimiga integratsiya qilishga qaratilgan strategiyalar ishlab chiqildi, bu esa o'z navbatida mamlakat iqtisodiyotini diversifikatsiya qilish, xorijiy investitsiyalarni jalb etish va moliyaviy inklyuzivlikni oshirish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Shu bois mamlakatimiz uchun islom moliyasi tizimining rivojlanish istiqbollarini ilmiy jihatdan tahlil qilish va uni joriy etishning aniq mexanizmlarini ishlab chiqish muhim ilmiy-amaliy vazifalardan biri hisoblanadi.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. Islom moliyasi bo'yicha xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy ishlari tahlili shuni ko'rsatadiki, bu sohada ilmiy izlanishlar sezilarli darajada kengayib bormoqda. Xorij olimlaridan M.K. Hassan, I. Soumaré², B. Maurer³lar ilmiy izlanishlar olib borayotgan bo'lsa, yurtimiz olimlar orasida O. Akhmadjonov, A. Abdullaev, S. Yusupov, J. Anvarov,⁴ K. Umarjonov, M. Shamsiddinov⁵ kabilar o'z tadqiqotlarida mavzuning u yoki bu jihatlarini yoritib kelmoqda.

¹ <https://inlibrary.uz/index.php/journal-science-innovative/article/download/62681/63312>

² Hassan, M. K., & Soumaré, I. (2007, November). Financial guarantee as an innovation tool in Islamic project finance. In Economic Research Forum Working Papers (No. 0713). Mousavian, IIMF Sukuk Database.

³ Maurer, B. (2010). Form versus substance: AAOIFI projects and Islamic fundamentals in the case of sukuk. Journal of Islamic Accounting and Business Research, 1 (1), 32-41.

⁴ O Akhmadjonov, A Abdullaev, S Yusupov, J Anvarov. (2021). ISLON BANKCHILIGIDAGI XAVF. Scientific progress 2 (8), 639-642.

⁵ Umarjonov, M Shamsiddinov. (2021). ISLON MOLIVASINING XUSUSIYATLARI. Scientific progress 2 (8), 634-638.



Tahlil va natijalar. Islom moliyasi — bu moliyaviy munosabatlarning shariat qoidolari asosida tashkil etilgan muqobil tizimdir. U o‘zining maqsadlari, tamoyillari va amaliyot jihatlari bilan an’anaviy kapitalistik moliya tizimidan tubdan farq qiladi. Islom moliyasi nafaqat foizsiz (ribo) moliyalashtirish konsepsiyasi bilan ajralib turadi, balki u iqtisodiy adolat, ijtimoiy tenglik va axloqiy qadriyatlarga asoslangan yondashuvni ham taqdim etadi. Islom moliyasining asosida shariat qonunlariga tayanuvchi iqtisodiy munosabatlar yotadi. ⁶Shariatda pul o‘z-o‘zidan boylik vositasi emas, balki almashuv vositasi deb qaraladi. Shu bois moliyaviy operatsiyalarda pul orqali passiv daromad (ya’ni foiz) olish qat’iyan taqiqlanadi. Bu yondashuv jamiyatda moliyaviy resurslarning ishlab chiqarishga yo‘naltirilishini rag‘batlantiradi va iqtisodiy faoliyatni real sektor bilan bog‘laydi. Islom moliyasi moliyaviy bitimlar orqali jamiyatdagi barcha tomonlarning manfaatini inobatga olgan holda adolatli taqsimotga intiladi. Foyda olish imkoniyati mavjud bo‘lsa-da, u doimo risk va zarar ehtimoli bilan bog‘liq bo‘ladi. Bu tamoyil esa muomalalarda shaffoflik, mas’uliyat va sheriklikni talab qiladi. Moliyaviy resurslardan foydalanish jamiyat manfaatlariga xizmat qilishi, kambag‘allikni kamaytirishi, resurslar adolatli taqsimlanishini ta’minlashi kerak. Aynan shu yondashuv islom moliyasini “axloqiy moliya” deb atashga asos bo‘ladi.

So‘nggi yillarda islom moliyasi nafaqat musulmon mamlakatlarda, balki G‘arbda ham jadal sur‘atlarda rivojlanmoqda. Buning asosiy sababi shundaki, bu tizim iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash, moliyaviy spekulatsiyani kamaytirish va ijtimoiy inklyuzivlikni oshirishga qaratilgan. Ayniqsa, global moliyaviy inqirozlar fonida islom moliyasining barqarorligi va muqobil yechim sifatidagi o‘rni yaqqolroq namoyon bo‘ldi. Islom moliyasi nafaqat moliyaviy muqobil tizim, balki iqtisodiy adolat va ma’naviy qadriyatlarga tayanuvchi yondashuvni ham o‘zida mujassamlashtiradi. Islom moliya tizimi o‘ziga xos

⁶ Ziyoviddinov, Z. *Islom moliyasining xususiyatlari va uni O‘zbekiston iqtisodiyotiga tatbiq qilish imkoniyatlari* // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, 2020. // <https://iqtisodiyot.tsue.uz/index.php/iqtisodiyot/article/view/135>



moliyaviy instrumentlar majmuasiga ega bo‘lib, ular shariat tamoyillariga muvofiq ishlab chiqilgan. Bu instrumentlar nafaqat moliyaviy bitimlar tuzish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi, balki iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi, resurslarning adolatli taqsimoti va ijtimoiy tenglikni ta‘minlashga xizmat qiladi. Asosiy farq shundaki, bu vositalar faqat foyda olishni emas, balki foyda va zararlarni sheriklik asosida baham ko‘rishni ham nazarda tutadi. Bu yondashuv orqali islom moliyasi real iqtisodiy faoliyat bilan bevosita bog‘liq bo‘ladi va spekulativ amaliyotlarga yo‘l qo‘ymaydi. Eng ko‘p uchraydigan va keng qo‘llaniladigan instrumentlardan biri bu — murobaha. **Murobaha** — bu savdo asosidagi moliyalashtirish turi bo‘lib, unda moliyaviy tashkilot mijoz talab qilgan mahsulotni xarid qilib, unga belgilangan ustama bilan sotadi. Bu jarayonda mijoz nima sotib olishini aniq biladi, narxlar oshkora ko‘rsatiladi, va taraflar o‘rtasida shaffoflik ta‘minlanadi. Bu instrument, ayniqsa, an‘anaviy kredit olishni istamaydigan mijozlar uchun muqobil moliyaviy yechim hisoblanadi. Shuningdek, ijara vositasi ham keng tarqalgan bo‘lib, bu orqali aktivlar (masalan, uskunalar, binolar yoki transport vositalari) mijozga ma‘lum muddatga ijaraga beriladi. Bu tizimda foyda ijara to‘lovlari orqali olinadi, lekin aktiv egaligini o‘tkazish faqat bitim yakunida amalga oshiriladi. Bu shakl ko‘p hollarda ishlab chiqarish korxonalari yoki kichik bizneslar tomonidan real aktivlarga ega bo‘lishda afzal ko‘riladi. **Istisna** va **salaam** kabi instrumentlar, ayniqsa, qurilish va qishloq xo‘jaligi sohalarida katta iqtisodiy ahamiyat kasb etadi. Istisna bitimida hali mavjud bo‘lmagan mahsulot yoki xizmat uchun oldindan mablag‘ ajratiladi, bu esa loyihalarni moliyalashtirishda samarali yechim hisoblanadi. Salaam esa hosilni oldindan sotib olish orqali fermerlarga ishlab chiqarish uchun zarur kapital bilan ta‘minlaydi va ayni paytda bozor uchun barqaror ta‘minot zanjirini shakllantiradi. Sheriklik asosidagi instrumentlar — **musharaka** va **mudaraba** — esa risk va foydaning teng taqsimlanishiga asoslanadi. Musharaka modelida har ikki tomon ham kapital qo‘shadi va faoliyatda faol ishtirok etadi. Mudarabada esa bir tomon kapital beradi, ikkinchi tomon esa menejmentni amalga oshiradi.



Bunday sherikliklar nafaqat biznesni moliyalashtirishda, balki iqtisodiy resurslarni to'g'ri yo'naltirishda ham muhim rol o'ynaydi. Notijoriy instrumentlar esa islom moliyasining ijtimoiy jihatini aks ettiradi. **Zakot, sadaqa, qarz ul hasan, vaqf** kabi vositalar orqali jamiyatdagi kambag'allar va ehtiyojmandlar moliyaviy qo'llab-quvvatlanadi. Bu vositalar orqali resurslar qayta taqsimlanadi, ijtimoiy barqarorlik va iqtisodiy faollik rag'batlantiriladi.⁷ Ayniqsa, zakot va sadaqa kabi majburiy va ko'ngilli xayriyalar iqtisodiy adolat va jamiyat farovonligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. **Takoful** (islomiy sug'urta) tizimi esa jamoaviy yordamga asoslangan bo'lib, xavflarni taqsimlash orqali ijtimoiy xavfsizlikni ta'minlaydi. Takofulda har bir ishtirokchi jamg'armaga badal to'laydi va zarurat tug'ilganda shu jamg'arma hisobidan moddiy yordam oladi. Bu an'anaviy sug'urta tizimiga nisbatan shariatga mos va ijtimoiy jihatdan maqbul alternativ hisoblanadi.

Shu tariqa, yuqorida ta'kidlaganimi kabi, islom moliyasi instrumentlari nafaqat moliyalashtirish vositalari, balki adolat, shaffoflik va ijtimoiy mas'uliyat tamoyillarini amaliyotga tatbiq qiluvchi mexanizmlardir. Ular orqali nafaqat iqtisodiy faoliyat rag'batlantiriladi, balki ijtimoiy qatlamlar o'rtasidagi farqlar yumshatiladi, kambag'allik kamaytiriladi va moliyaviy inklyuzivlik oshiriladi. Aynan shuning uchun bu instrumentlar zamonaviy iqtisodiyotda muhim o'rin egallab, barqaror rivojlanish strategiyalarining ajralmas qismiga aylanmoqda. Zamonaviy iqtisodiyotning tobora murakkablashib borayotgan tuzilmasi, moliyaviy inqirozlar, ijtimoiy tengsizlik va axloqiy qadriyatlar inqirozi sharoitida islom moliyasi tobora dolzarb va muqobil yechim sifatida namoyon bo'lmoqda. Ushbu tizim faqatgina moliyaviy amaliyotlarning shakli emas, balki ularning maqsadi, mohiyati va ijtimoiy oqibatlariga qaratilgan tamoyillari bilan ajralib turadi. Islom moliyasi iqtisodiyotda shunchaki daromad olishni emas, balki foyda va zarar taqsimoti, resurslarning adolatli aylanishi, risklarni ijtimoiy jihatdan maqbul tarzda taqsimlashga asoslanadi. Shuning uchun ham u iqtisodiy jarayonlarga faqat texnik yondashmaydi, balki

⁷ <https://pedagoglar.org/02/article/view/3730/3404> // <https://doi.org/10.5281/zenodo.11403349>



axloqiy va barqaror yondashuvni taklif qiladi. Islom moliyasining zamonaviy iqtisodiyotga qo'shayotgan eng muhim hissasi uning real iqtisodiyot bilan uzviy bog'liqligidir. Barcha moliyaviy instrumentlar — murabaha, mudaraba, musharaka, sukuk va boshqalar — bevosita ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish yoki savdo faoliyatiga bog'langan. Bu esa islom moliyasini sun'iy iqtisodiy pufaklardan, spekulativ moliyaviy amaliyotlardan xoli qilib, real iqtisodiy o'sishga xizmat qiluvchi vosita sifatida ko'rsatadi.

Islom moliyasi zamonaviy global moliya tizimining muhim tarkibiy qismiga aylanib bormoqda. So'nggi o'n yilliklar davomida u musulmon davlatlar bilan cheklanib qolmay, Yevropa, Osiyo va hatto Afrika mintaqalaridagi turli mamlakatlarda ham faol rivojlanayotgan moliyaviy model sifatida e'tirof etilmoqda. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatmoqdaki, islom moliyasi shunchaki diniy motivatsiyaga asoslangan tizim bo'lib qolmasdan, barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta'minlay oladigan, risklarni adolatli taqsimlaydigan va investitsion muhitga ishonch uyg'otadigan samarali moliyaviy mexanizm sifatida shakllanmoqda. Bugungi kunda **Malayziya** islom moliyasi sohasida dunyo miqyosida yetakchi mamlakatlardan biri hisoblanadi. Ushbu davlatda islom moliyasi faqat bank tizimi darajasida emas, balki kapital bozorlarida, sug'urta xizmatlarida va investitsiya fondlarida ham keng tatbiq etilgan. Malayziyada shariat standartlarini ishlab chiqish va ularni amaliyotga tatbiq etish borasida kuchli institutsional asoslar yaratilgan. Hukumat islomiy moliyaviy mahsulotlarni rag'batlantirish maqsadida soliq imtiyozlari, huquqiy normalar va strategik yo'nalishlar ishlab chiqqan. Natijada, Malayziya nafaqat o'z mintaqasida, balki xalqaro miqyosda ham sukuk — islomiy obligatsiyalar bozorining eng faol ishtirokchisiga aylangan. **Saudiya Arabistoni va Birlashgan Arab Amirliklari** ham islom moliyasi sektorini strategik yo'nalish sifatida rivojlantirib kelmoqda. Ushbu davlatlarda islomiy banklar soni ortib bormoqda, yirik infratuzilma loyihalari islomiy moliyalashtirish asosida amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, Saudiya Arabistonining ichki



sukuk bozori 2017-yildan boshlab jadal rivojlandi va bugunga kelib davlat moliyasi va suveren qarzlarni qoplashda asosiy vositalardan biriga aylandi.⁸

Islom moliyasi sohasidagi geografik kengayish faqat musulmon davlatlari bilan cheklanmayapti. Buyuk Britaniya, Luksemburg, Janubiy Afrika, Turkiya, Indoneziya va hatto Yaponiyada ham islomiy moliyaviy vositalar joriy qilinmoqda. Buyuk Britaniya G'arb dunyosida islom moliyasi bo'yicha ilk sukuk chiqarilgan mamlakat hisoblanadi. Bu sukuklar orqali hukumat Shariatga muvofiq investorlardan mablag' jalb qilgan. Shuningdek, ushbu mamlakatda islomiy banklar, takaful kompaniyalari va investitsiya fondlari faoliyat yuritadi. Hukumat bu tizimni rivojlantirish uchun maxsus qonunchilik asoslarini ishlab chiqdi hamda Londonni G'arbdagi islom moliyasi markazlaridan biriga aylantirishga intilmoqda. Yevropaning boshqa mamlakatlarida, masalan, Germaniya, Fransiya va Italiyada ham islomiy moliyaga qiziqish ortib bormoqda. Ular ushbu tizim orqali Yaqin Sharq va Janubi-Sharqiy Osiyodagi boy investorlarni jalb qilish, shuningdek, o'z aholisining diniy e'tiqodiga mos moliyaviy xizmatlar ko'rsatish imkoniyatlarini ko'rmoqda. Turkiya esa, o'zining geografik va madaniy pozitsiyasidan foydalanib, islom moliyasini milliy iqtisodiyotning ajralmas qismiga aylantirishni maqsad qilgan. So'nggi yillarda Turkiyada bir necha turdagi sukuk strukturalari — ijara, mudaraba, wakala va gibril modellarida — muvaffaqiyatli tatbiq etilmoqda.

Alohida ta'kidlash kerakki, xalqaro moliyaviy institutlar, xususan Islom taraqqiyot banki (IsDB), Xalqaro valyuta jamg'armasi (IMF) va Jahon banki (World Bank) ham islom moliyasining barqaror rivojlanishini qo'llab-quvvatlammoqda. IsDB o'z a'zolari uchun infratuzilma, ta'lim, sog'liqni saqlash va energetika loyihalarini aynan islomiy moliyalashtirish asosida moliyalashtirib kelmoqda. Bu esa islom moliyasi vositalarining

⁸ *Islamic Finance Instruments and Their Role in Infrastructure Projects* // Journal of Emerging Economies and Islamic Research. // <https://journals.iium.edu.my/enmjournals/index.php/enmj/article/view/285>



ijtimoiy va iqtisodiy ahamiyatini yana bir bor tasdiqlaydi.⁹ Shunday qilib, xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, islom moliyasi turli madaniy va huquqiy muhitlarda ham muvaffaqiyatli ishlay oladigan universal moliyaviy modeldir. Uning asosida yotgan axloqiy tamoyillar, real aktivlarga bog'liqlik, risk va foydani adolatli taqsimlash kabi yondashuvlar uni zamonaviy moliya tizimi uchun nafaqat muqobil, balki zaruriy vositaga aylantirmoqda. Ushbu tizimni ilg'or amaliyotlar asosida yanada kengaytirish va ularni mahalliy sharoitlarga moslashtirish esa kelajakdagi iqtisodiy barqarorlik va inklyuzivlikning muhim kalitlaridan biridir.

Xulosa va takliflar. Yuqorida olib borilgan tadqiqotdan kelib chiqib quyidagi takliflar ishlab chiqildi.

Birinchidan, islom moliyasi sohasida kadrlar tayyorlash, malaka oshirish va ilmiy tadqiqotlar olib borishga alohida e'tibor qaratish zarur. Yuqori malakali mutaxassislar, shariat maslahatchilari va moliyaviy muhandislar islomiy mahsulotlarni ishlab chiqish va joriy etishda muhim rol o'ynaydi.

Ikkinchidan, islom moliyasi mahsulotlarini raqamli texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish orqali moliyaviy xizmatlarning ommaviyligini ta'minlash mumkin. Elektron platformalarda sukuk, takaful, mudaraba va boshqa xizmatlarni taklif etish orqali aholining keng qatlamlarini jalb qilishga erishiladi.

Uchinchidan, davlat va xususiy sektor hamkorligida islom moliyasining real loyihalardagi tatbiqini kengaytirish zarur. Infratuzilma, ijtimoiy xizmatlar, energiya va qishloq xo'jaligi sohalarida islomiy moliyalashtirish asosidagi mexanizmlar joriy etilishi ijobiy natijalar beradi.

Xulosa qilib aytganda, islom moliyasining rivojlanishi moliyaviy sohada innovatsion, barqaror va ijtimoiy mas'uliyatli alternativani taqdim etadi. Ushbu takliflar tizimli ravishda

⁹ Khodijah Ishak. *The Role of Islamic Finance in Economic Development*, STIE Syariah Bengkalis // <https://commons.ln.edu.hk/ljbfe/vol1/iss1/9>



amalgaga oshirilsa, mamlakatda yangi moliyaviy ekotizim shakllanadi va iqtisodiyotning raqobatbardoshligi sezilarli darajada ortadi deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Khodijah Ishak. The Role of Islamic Finance in Economic Development // *Journal of Business and Financial Economics*. – STIE Syariah Bengkalis. – 2019.
URL: <https://commons.ln.edu.hk/ljbfe/vol1/iss1/9>
2. Jo'rayev D., Umaraliyev J. Islom moliyasi: nazariy asoslari va O'zbekistondagi istiqbollari // *Iqtisodiy bilimlar elektron jurnali*. – 2021. – №3. – B. 351–358.
URL: <https://journal.tsue.uz/index.php/iqtisodiyot/article/view/351>
3. Ziyoviddinov Z. Islom moliyasining xususiyatlari va uni O'zbekiston iqtisodiyotiga tatbiq qilish imkoniyatlari // *Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar*. – 2020. – №1(39).–B.1–7.
URL: <https://iqtisodiyot.tsue.uz/index.php/iqtisodiyot/article/view/135>
4. Ahmadjonov A., Abdullayev A., Umarjonov B. va boshq. *Islom moliyasi: darslik*. – Toshkent: TDIU nashriyoti, 2021. – 276 b.
5. Manzoor D. va boshqalar. Financing Infrastructure Projects Based on Risk Sharing Model: Istisna Sukuk // *Journal of Emerging Economies and Islamic Research*. – 2017. – Vol.5(3).
URL: <https://journals.iium.edu.my/enmjjournal/index.php/enmj/article/view/285>
6. Turkey builds up new Islamic finance tools. – Reuters maqolasi. – 2013.
URL: <https://zulkiflihasan.wordpress.com/2013/05/31/turkey-builds-up-new-islamic-finance-tools>